XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 7-aprel VII-18-46-3-44-K/26 Baxmal tumani

Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori 8-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan Baxmal tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasining 2026-yil 26-martdagi 47-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-son “Mahalliy budjetlarva budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini

oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i M.Abdullayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sanitar qoidalari va me’yorlariga asosan hududlar bo‘yicha o‘rnatilgan me’yorlardan iste’molchining faoliyat turidan, joylashuvidan va xizmatidan foydalanish usulidan kelib chiqib iste’molchi tomonidan 1 m^3 QMCh (qattiq maishiy chiqindilar) hajmi uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarini markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish xizmat haqqi so‘mmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (I.Boymurodov), tuman Tibbiyot birlashmasi (Z.Fayzullayev), tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig’i, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (B.Mirzabekov)lar fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu Qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ZIKIRYAYEV ABDUAZIZ AMONOVICH**

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2026-yil 7-apreldagi
VII-18-46-3-44-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari

Xizmat Ko‘rsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki madel raqami**	**O‘lchov Birligi**	**Tarif miqdori (so‘m)**
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarni markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish (QQS bilan)	**QMCH**	**1 m³**	**67200**